ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JARGONLAR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Rahimova Zebiniso Shomansur qizi,
Termiz davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Og‘zaki nutq milliy tilning muhim shakllaridan biri sifatida lug‘aviy vositalarning qo‘llanilishi jihatidan erkin bo‘lganidek, til boyligini namoyon etuvchi nutq shakli hamdir. Ko‘pgina lug‘aviy vositalar og‘zaki nutqda, uning shakllarida paydo bo‘lib, tilning bitmas-tuganmas lingvistik birliklar yaratish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Jargon, sleng, evfemizm, metafora kabilar til imkoniyatining cheksizligini ko‘rsatuvchi shunday birliklardir.

Til o‘zining amal qilish doiralari va birliklarini doimo nazoratda tutib turadi. Chegaralangan va chegaralanmagan til birliklari shu birliklar qatorida faol birliklardandir. Chegaralangan leksik birlik hisoblanuvchi jargonlar o‘zbek tilshunosligida bir muncha o‘rganilgan lug‘aviy vositalar bo‘lsa ham, hali maxsus leksik qatlam sifatida lug‘aviy-semantik, sotsial, lingvopragmatik jihatdan o‘rganilmagan va lug‘aviy birliklarning mohiyati ochilmagan. Leksikologiya, nutq madaniyati va sotsiolingvistikaga oid ayrim adabiyotlarda jargonlarning ta’rifi keltirilib, ba’zi misollar berilishi bilan chegaralanib kelingan.

U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida jargonga oid leksemalar tilda o‘z ma’nosida emas, balki ma’no ko‘chishi natijasida hosil bo‘lishi va qo‘llanishi mumkin ekanligi alohida ta’kidlanadi[1]. Biz bu fikrga qo‘shilamiz. Chunki tadqiqotlar va tahlillarda kuzatilgan jargonlarda aynan ma’no ko‘chish hodisasi faoldir. Chet tillaridan o‘zlashtirilgan jargonlarda ham shu xususiyat ko‘zga tashlanadi, ya’ni chet tilidan o‘zlashgan so‘z jargon sifatida ishlatilishi uchun u o‘zbek tilidagi muqobili o‘rnida emas, balki ko‘chma ma’no yuklangan shaklda bo‘lishi talab etiladi. Masalan, *strelka* so‘zi rus tilidan o‘zbek tiliga «ko‘rsatkich» ma’nosida tarjima qilinadi. Biroq strelka so‘zi o‘zbek tilida yoshlar jargoni sifatida «uchrashuv» ma’nosida ishlatiladi. *Kusok* so‘zi «bo‘lak» ma’nosida tarjima qilinsa-da, «ming so‘m pul» ma’nosini anglatuvchi jargon sifatida qo‘llaniladi.

Jargonlar ham boshqa til birliklari singari muayyan qonuniyatlarning mahsuli, hosilasi sifatida yuzaga kelgan. O‘zbek tilida o‘rganilgan va tahlil qilingan jargonlar yasalish xususiyatiga ega emas.

Jargonlarning lingvistik tahlili amalga oshirilar ekan, uning tuzilish jihatdan turlarini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra tilning boshqa leksemalari singari jargonlar ham sodda va qo‘shma, murakkab turlarga bo‘linadi.

Sodda jargonlar bo‘linmas bo‘lib, ular bir o‘zakdan iborat tub lug‘aviy birliklardir. Sodda jargonlar fe’l, ot, sifat va son turkumidagi so‘zlar bilan ifodalanadi. Masalan, *g‘isht (xunuk), giyoh (geroin), tanka (homiy), olqindi (buzuq ayol), loy (pul), shapka (ustama), qaychi (tekshiruvchi), mo‘ysafid (aroq), bedana (to‘pponcha), qizil (10 so‘mlik), quruq (qizg‘anchiq).*

O‘zbek tilida mavjud boshqa nutqiy birliklar kabi jargonlar ham o‘ziga xos semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu birliklar o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub sodda va qo‘shma so‘zlardan tashkil topishi mumkin. Masalan, *kalla tashlamoq* (band bo‘lmoq), *bulbuligo‘yo kelmoq* (ko‘p gapirmoq), *mehmon qilmoq* (ta’zirini bermoq), *arra qilmoq* (bo‘lishmoq), *nota topshirmoq* (kelishib olmoq) va boshqalar.

Murakkab turdagi jargonlarga ibora shaklidagi jargonlarni kiritamiz. Bu turdagi jargonlarda bir necha so‘z birgalikda bitta mazmun kasb etadi. Masalan, *qulog‘iga lag‘mon ilmoq (yolg‘on gapirmoq), devorni ushlatib ketmoq (aldab ketmoq), dumini bosib olmoq (ishiga aralashmoq), quyonning rasmini chizmoq (qochmoq)* va shu kabilar.

Ba’zi hollarda jargon iboralar oddiy ibora sifatida og‘zaki so‘zlashuvda barchaning nutqida birdek ishlatiladi. Bu ularning ishlatilish doirasi kengayganligini bildiradi. Shuning uchun ularning maxfiylik va ijtimoiy guruhga xoslik xususiyati susaygan. Masalan, *qulog‘iga tepmoq* jargoni hozirda barcha til egalari tomonidan ishlatilmoqda.

Ba’zan jargonni ifodalagan so‘z qanday ma’no aks ettirayotganligini bilib olish qiyin bo‘lmaydi, bu holatda ma’no ko‘chishi to‘g‘risida biroz ma’lumotga ega bo‘lish yetarli. Biroq ba’zi jargonlar borki, ularning adabiy tilda varianti uchramaydi. Ular, asosan,

[1] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 149-150.

maxfiylik maqsadida hosil qilingan jargonlardir. Masalan, *zamri*, *atamri*, *atanda, shuxer*, *shabash*, *mandra*, *mura*, *ligavi*, *xata*, *nagan.*

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jargonlarning eng birlamchi xususiyatlaridan biri ularning ma'no ko'chishi orqali hosil bo'lishidir.

Jargonlar ham leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari orqali hosil bo'lishi mumkin:

a) metafora (*ayiq, g'isht, sigir, archa, turshak*);

b) metonimiya (*xalat, galstuk, qaychi*);

c) sinekdoxa (*jigar, quloq*).

Jargonlarning til tizimidagi o'rnini belgilashda ularning hosil bo'lishi, tuzilishi, ifodalanishi, leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslikning muhim masalalaridan biridir. Chunki jargonlar muayyan xalqning vakillari tomonidan nutqda qo'llaniladigan so'zlar bo'lib, shu xalq ruhini ifodalashga xizmat qiladi.

Tilning boshqa lisoniy birliklar kabi jargonlar ham lug'aviy va semantik xususiyatlarga ega bo'lgan birliklardir. Bu birliklar, asosan, tilda mavjud bo'lgan so'z va birikmalarning boshqa yangi ma'noda qo'llanilishi asosida vujudga keladi. Shuningdek, ayrim jargonlar dabdabali, ko'tarinki nutq yaratish maqsadida yaratilganligi kuzatiladi. Bunday jargonlar, asosan, yuqori tabaqa vakillari nutqiga xos.

Jargonlar umumxalq tiliga xos bo'lmagan lug'aviy birliklar bo'lsa-da, shu tilda so'zlashuvchi ko'pchilik ijtimoiy guruhlar tomonidan ularning ishlatilishini kuzatish mumkin. Binobarin, yoshlar, ayollar, savdogarlar kabi ijtimoiy guruhlar muayyan til egalarining katta qismini tashkil etadi. Bu hol jargonlarning muhim nutqiy birlik ekanligini ko'rsatadi. Jargon turlarining ko'pligi va xilma-xilligi bunga yorqin dalilidir.

Jargonlar ham boshqa til birliklari singari muayyan qonuniyatlar mahsuli sifatida yuzaga kelgan. O'zbek tilida uchraydigan jargonlarning yasalish xususiyati mavjud emasligi kuzatildi. Jargonlarning muayyan qismi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar asosida paydo bo'lgan.

Turli tadqiqotlarda jargonlarning sotsial guruhlari turli sonda sanab kelinadi. Biroq jargonlarni psixolingvistik jihatdan tadqiq etgan M.X.Axmedova jargonlarning sotsial guruhlari haqidagi quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: «Jargonlarni sinfiy qatlamli, ishlab chiqarishga oid, yoshlarga oid, qiziqishlari bo'yicha guruhlashgan kishilar jargoni kabi turlarga bo'lish mumkin. Ishlab chiqarish jargonlariga kishining tushunish qiyin bo'lgan, yo bilmagan har qanday kasb jargonlari kiradi. Hozirda, jargonning barcha mavjud turlarini sanab chiqish mushkul[1]«. Tadqiqotchi buning sababi sifatida o'zbek tilida jargon guruhlari hali to'liq o'rganilmaganligini qayd etadi.

Dunyo tilshunosligida jargonlar ijtimoiy va kasbiy jihatdan ikkita katta guruhga bo'lib o'rganiladi. Bular ijtimoiy va kasbiy jargonlardir. Ijtimoiy jargonlarga: yoshlar jargon, talabalar jargoni, o'quvchilar jargoni, harbiy xizmatchilar, dengizchilar jargoni kabilar mansub bo'lsa, kasbiy jargonlar: programmistlar, artistlar, musiqachilar, yozuvchilar, siyosatchilar, sportchilar, o'qituvchilar, kompyuter, shifokorlar, savdogarlar (biznesmenlar), qassoblar, uchuvchilar, quruvchilar jargoni mansub[2].

O'zbek tilshunosligida keyingi davrda olib borilgan izlanishlar asosida jargonlarning sotsial guruhlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Yuqori tabaqa vakillari nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
2. Din peshvolari nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
3. Savdogarlar nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
4. O'g'rilar va bezorilar nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
5. Otarchilar (sozandalar) nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
6. Xotin-qizlar nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
7. Talabalar va o'quvchilar nutqida qo'llaniluvchi jargonlar;
8. Umumomma tomonidan qo'llaniluvchi jargonlar[3].

Bu guruhlar soni tadqiqotlar natijasida ortib borishi mumkin.

Tarkibida jargonlardan foydalanilgan nutq o'zi mansub sotsial guruhlarning maqsadlarini va vazifalarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunday holatda ular o'z maqsadlarini ochiq bayon etmay, yashirin tilda o'zaro so'zlashadilar. Masalan,

– *Anvarjon! Loyi to'rt paxsadan kam bo'lmasin.*

– *Bu tomonni menga qo'yib bering, loyini yaxshilab pishitganman, poydevori mustahkam, to'rtbesh paxsani ham ko'taradi.* (Sharq yulduzi. 5-son, 2008)

Bu o'rinda qo'llanilayotgan *paxsa* va *loy* so'zlari otarchilar nutqidagi jargonlar hisoblanadi. Bu jargonlar qo'llanilishi natijasida hosil bo'lgan matnni o'qigan boshqa ijtimoiy guruh vakili tafakkurida qurilish bilan bog'liq jarayon namoyon bo'ladi. Biroq jargon xos bo'lgan sotsial guruh vakili tafakkurida pul va pul miqdori haqidagi bahs namoyon bo'ladi.

Jargonlardan faol foydalanish ularni hosil qilishdagi o'ziga xosliklar natijasi deyish mumkin. Jargonlarning hosil bo'lishidagi ifodalilik, o'ynoqilik vazifasi tilning boshqa birliklariga qaraganda aniqroq

[1] Ахмедова М.Х. Арго, жаргон, сленгларнинг таснифи. // Вестник КГУ им. Бердаха. №4 (49) 2020. –Б. 92-94.

[2] Ахмедова М. Х. Арго, жаргон, сленгларнинг таснифи. // Вестник КГУ им. Бердаха. №4 (49) 2020. –Б. 92-94.

[3] Rahimova Z.Sh. O'zbek tilida jargonlarning lingvopragmatik tadqiqi: Filol.fan.b.fal.doktori dissertatsiyasi. – Termiz, 2024. – B. 76.

namoyon bo‘ladi. Jargonga oid birliklarni hosil qilish nafaqat yangi nomlarni yaratishga, balki ekspressiv, majoziy, o‘ynoqi, ifodali so‘zlarni yaratishga ham xizmat qiladi, ularning aksariyati adabiy tildagi neytral so‘zlar va so‘zlashuvdagi so‘zlarga o‘zgacha ma’no yuklash orqali hosil qilinadi.

O‘zbek ijtimoiy guruhlari tilida faol bo‘lgan jargonlar baho munosabatini ifodalash xususiyatiga ham ega. Biroq bu bahoning salbiy yoki ijobiy ekanligi faqatgina jonli muloqot jarayonidagi o‘rniga qarab belgilanadi. Jargonlarning muloqotdan tashqaridagi mazmuni neytral bo‘lishi mumkin. Bu birliklar ma’no ko‘chishi yordamida hosil qilinganligi tufayli jargondan foydalangan ijtimoiy guruh vakillarigina uning salbiy va ijobiy baho ifodalashini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bila oladi. Ijtimoiy guruhlar tashqarisida o‘z ma’nosida tushuniladi. Masalan, *ot, dodasi, tuz.*

Shuningdek, chet tilidan jargon birlik sifatida qabul qilingan so‘zlar ham salbiy yoki ijobiy baho ifodalaydi. Ular ham o‘zi mansub bo‘lgan ijtimoiy guruh vakillari uchungina baho munosabatini to‘g‘ri anglashiladi. Boshqalar uchun tushunarsiz birlik bo‘lib qolaveradi. Masalan, *shuxer, atanda*, *hamka*, *deshevka.*

Jargondan foydalanish bevosita muloqot yoki suhbat ishtirokchilari o‘rtasidagi muhit va munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, foydalanuvchilarning katta qismi jargon leksikasidan oila davrasida emas, balki ish joyida yoki ijtimoiy muhitda faol foydalanadi. Jargonlarni sotsial jihatdan o‘rganish bugungi kun tilshunosligi oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ijtimoiy guruhlarning jargondan foydalanishi doimiy hodisa bo‘lsa ham, jargonlar lug‘atini tuzish biroz murakkab jarayondir, chunki jargon leksikasi tez-tez yangilanib turadi. Avlodlar almashinuvi yoki maxfiy jargonlarning ma’nosi hammaga ma’lum bo‘lishi tufayli jargon leksikasi yangilanishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar nutqidagi jargonlar juda tez o‘zgaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jargon umumiy til bilan chambarchas bog‘liq. Til tizimidan kelib chiqqan holda, jargon ushbu tizimning bir qismi bo‘lib, butun tizim uchun umumiy qonunlarga muvofiq yashaydi va rivojlanadi. Jargon kichik ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan individual xususiyatga ega bo‘lgan nomustaqil til birligi bo‘lsa-da, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish sotsial chegaralangan leksikaning amal qilish hududlarini aniqlashtirish imkonini yaratadi. Jargonlarga antropotsentrik yondashuv sotsial muloqotni chuqur tadqiq qilishga, insonning turli vaziyatlardagi nutq ko‘rinishlarini tahlil qilishga undaydi.

Rezyume: Maqolada jargonga ta’riflar, jargon xos bo‘lgan sotsial guruhlar va jargonlarning turli nutq vaziyatlaridagi individual xususiyatlari tahlilga olingan. Antropotsentrik tilshunoslik davriga qadar jargon so‘zlar leksikologiya tarkibida o‘rganib kelingan. Zamonaviy tilshunoslik doirasida jargonlar sotsiolingvistikaning o‘rganish obyektiga aylangach, uning funksiyalari kengaydi. Shu sababdan jargonlarni uni yaratuvchi ijtimoiy guruhlar bilan birgalikda o‘rganish bu birliklarning yaratilish sabablari va maqsadlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, jargonlar ijtimoiy guruh a’zolarining psixik holati va jamiyatdagi o‘rnini ham ifodalashi mumkin.

Resume: This article analyzes the definitions of jargon, the social groups that use jargon, and the individual characteristics of jargon in various speech situations. Before the era of anthropocentric linguistics, jargon was studied within the framework of lexicology. In modern linguistics, when jargon became the object of study for sociolinguistics, its functions expanded. Therefore, studying jargons in conjunction with the social groups that create them helps determine the reasons and purposes for their creation. Jargons can also express the psychological state of members of a social group and their place in society.

Резюме: В статье анализируются определения жаргона, социальные группы, которым свойствен жаргон, а также индивидуальные особенности жаргонов в различных речевых ситуациях. До эпохи антропоцентрической лингвистики жаргонизмы изучались в рамках лексикологии. В рамках современной лингвистики, когда жаргоны стали объектом изучения социолингвистики, их функции расширились. Поэтому изучение жаргонов в совокупности с социальными группами, которые их создают, помогает определить причины и цели их создания. Жаргоны также могут выражать психологическое состояние членов социальной группы и их место в обществе.